

## O'SMIRLIK DAVRIDA YUZAGA KELADIGAN PSIXOLOGIK MUAMMOLAR

**Bozorova Ro'zigul Xurramovna**

TerDU ijtimoiy fanlar fakulteti

Amaliy psixologiya yo'nalishi

2-bosqich talabasi

+998 99 704 96 15

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'smirlilik davrida yuzaga keluvchi ba'zi muammolar haqida so'z boradi. Shu bilan birga, ularda namoyon bo'luvchi ba'zi salbiy holatlar va ularning kelib chiqish sabablari ham atroflicha o'rganiladi. O'smirlilik davrining asosiy ko'rinishlari haqida ham mulohazalar yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** O'smirlilik, agressevlik, egoism, alturizm, depressiya, liderlik, tafakkur, shizofreniya, gipokeneziya, abulya, qobiliyat, stress, deskeniziya, ong, evolutsiya, sotsiologiya, jamiyat.

**Annotation:** This article talks about some of the problems that arise in adolescence and at the same time some of the negative situations that appear in them and the reasons for their origin are also studied in detail. The main aspects of adolescence are also discussed.

**Key words:** Adolescence, aggressiveness, egoism, altruism, depression, leadership, thinking, schizophrenia, hypogenesia, abulia, ability, stress, dyskinesis, consciousness, evolution, sociology, society.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются некоторые проблемы, возникающие в подростковом возрасте. При этом также подробно изучаются некоторые негативные ситуации, проявляющиеся в них и их причины. Также обсуждаются основные аспекты подросткового возраста.

**Ключевые слова:** Подростковый возраст, агрессивность, эгоизм, альтруизм, депрессия, лидерство, мышление, шизофрения, гипокенезия, абулия, способности, стресс, дискинезия, сознание, эволюция, социология, общество.

O'smirlilik davrining muammolari nimalardan iborat, nega bola ulg'aygan sari uning ongi, dunyo qarashi ham o'zgaradi degan fikrlar yo'q emas. Bu borada ko'plab psixologlar ushbu jarayonlarni o'rganishni maqsad qilgan, ammo hanuzgacha bunga yechim topa olmagan, biror narsani yaqqol asos qilib ko'rsata olishmagan. Bola o'smirlilik davriga o'ta boshlaganda uning ongi, tafakkuri rivojlanib boradi. Bu bir davrdan ikkinchi

davrga o'tish ham deyiladi. O'smir bolalarda psixologik, fiziologik va gormonal o'zgarishlar sodir bo'ladi. Ayni o'smirlilik davrida bola ruhiy muammolar holatiga ko'p tushib qoladi. Bola oilasida sodir bo'layotgan har xil voqea va hodisalardan kuchli ta'sirlana boshlaydi, hamda unga har taraflama e'tibor qaratadi. Bolalarning o'smirlilik davrida oila muhiti sog'lom bo'Imasa, ya'ni janjal kelishmovchiliklar ko'p bo'lsa bola chuqur stress holatlariga ham tushib qoladi. Buni qanday bilish mumkin degan fikr paydo bo'ladi. Buning sabablari quyidagilardan iborat: Bola kam gap, lanch, juda og'ir tabiatli, asabiy, hech narsaga e'tibor bermaslik, atrofdagilarga, ya'ni turli hodisa va kulguli narsa yoki holatlarga javob qaytarmaydigan, befarq, o'z hayotidan norozi, loqaydparast bo'lib qoladi. Bunday davrda ota-onalar o'zlar bilan o'zlar ovora bo'lib qolmasligi kerak. Chunki, bolani bunday qiyin holatdan eng birinchi ota-ona olib chiqqa oladi.

Ota-onalar

bolalarning hayotiga befarq bo'Imasligi lozim. Bu borada ota-ona bolalarini kuzatish metodidan foydalanib kuzatish kerak. O'ziga sezdirmasdan bolalarining yurish-turish va xarakteriga e'tiborilarini qaratirishni kuchaytirishlari shart. Agar bola tez-tez asabiy bo'lsa, darslarga, ishlarga mas'uliyatsiz yondashsa, gapga kirmaslik, yolg'izlik, insonlardan o'zini chetga olib va o'z dunyosida yashay boshlasa, demak o'smirlilik davrini boshdan o'tkazyotgan hisoblanadi.

O'smirlilik davrida bolaga juda kerakli

narsa ota-onaning mehr - muhabbatidir. Bola ota-onasi yoki boshqa yaqinlari bilan ijobiy munosabatda bo'lib, ko'proq suhbatlashishi kerak. Ota-ona bu davrdan boshlab bola fikrlarini eshitishi, uni siltab tashlamasligi kerak. U bilan xuddi katta insonlardek do'stona munosabatlarga kirishishi lozim. Ko'proq gaplari to'g'ri va ma'noli ekanligini aytib rag'batlantirishlari shart hisoblanadi. Bu davrda bolalarga ko'proq motivatsiyali gaplar va so'zlardan foydalanilsa mubolag'a bo'lmaydi. Oilada bola o'z o'mi, o'z fikrlari borligini his qilishi lozim. O'smirlilik davrida bola xatolarga yo'l qo'ygan paytda xatolarini janjal qilmasdan maslahatlashib to'g'ri hal qilish kerak. Masalan, bola xato qildi, sen odam bo'lmaysan, sen o'rtog'ingcha bo'lomaysan, sen o'sha otang yoki onangdek lattasan, sendan charchadim, sen boshimga bitgan balosan kabi emas, ya'ni sen zo'rsan, sen eng aqlisan, men sendan xafa bo'laman, onanga yoki otangga o'xshab yaxshi inson bo'lishing kerak, degan gaplar juda ham zarur hisoblanadi. Bolaning sog'lom muhitda ulg'ayishi juda muhim sanaladi. Uning har tomonlama sog'lom rivojlanishi uchun unga to'g'ri ta'llim-tarbiya juda zarur.

Agar bolalar sog'lom muhitda ulg'aymasa ular kelajakda salbiy yo'lga kirib ketishi hech gap emas. Bu degani bola shu darajada qiynalib janjalli oilada bemehr ota-ona bilan yashasa, buning oqibatida yolg'iz, ich-ichidan ruhiy siqilish yuzaga

kelishi, ovozsiz yig'lashi, kamsitilishi, do'stsiz qolishi mumkin. Ba'zida ko'pchilik bola bunday qiyin davrdan chiqib keta olmaydi, ya'ni norozilik tuyg'usi, shafqatsiz, bemehr. atrofiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan inson bo'lib qolishadi. Insonlarga ishonchszilik bilan qaraydigan, ulg'aysada ularning hayotida hech narsa o'zgarmagandek ulg'ayishadi. Ular hayotda juda ko'p qiynalishadi, ko'p afsus chekishadi, ko'p xatolarga yo'l qo'yishadi, ko'p yig'lashadi va ruhan ezilishadi, stress holatlarga uchrasa bu holatdan tez chiqib keta olishmaydi. Atrofdagi insonlarga ham ma'nан ham ruhan, ham jismonan ta'sir ko'rsatishadi. Bunday insonlar ko'pchilikdan qochadi, jamoaga qo'shila olishmaydi. Insonlar tazyiqiga uchrashadi. Ulardan ajralib qolishadi. Shuni unutmaslik kerakki, bunday insonlar mutlaqo aybsiz, aybsizligi shundaki sog'lom muhit ko'rмаган, mehr olmagan insonlardir. Ular har doim tazyiq ostida bo'lishgan, shu tufayli ulg'aysada mehrga muhtoj bo'lishadi. Kimdir yaxshilik qilsa yoki yaxshi gapirsa juda ham xursand bo'lishadi. Ularga yomon gap so'z juda tez ta'sir qiladi. Bunday insonlar keyinchalik oila qursalar ham xuddi ota-onasidek bo'lib o'tishi ehtimoli katta, chunki o'smirlikka doir ko'rgan kechirganlari bir umr yodda qoladi. Shu sababli, bola o'smirlik davrida ota-ona bilan do'stlardek suhbat qurishi va to'g'ri maslahat olishi juda muhim.

O'smirlik

davrida ota-onalar farzandiga iloji boricha yaxshi gapirishlari kerak, zarur bo'limasada ularga yaxshi ko'rishini aytib turishi kerak. Uning muammolarini tinglab birgalikda hal qilsa o'smir bola hayotidan mamnun va xursand bo'ladi. Bolalarda atrofdagilarga nisbatan ijobiy, do'stona munosabatlar shakllanadi. Bolalar o'smirlik davrini muvaffaqiyatli o'tkazishlari juda ham muhim hisoblanadi. O'smirlik davri qiz bolalarda 11-13, o'g'il bolalarda esa, 13-15 yoshdan boshlanadi. Bu bolalikdan kattalikka o'tish davri ham deb ataladi. Bu paytda bola ko'proq mustaqillikni yaxshi ko'radi, o'qishishlarida ota-onasidan kam maslahat so'rashadi. O'z fikrlarini to'g'ri deb bilishadi. Bu shuni ko'rsatadiki, bolangiz ulg'ayayapti, u endi o'z qiziqishlari tomon harakatlanadi. Ushbu davrda o'smirlar psixologik, fiziologik va jismoniy tarafdan ham ulg'ayishadi, butun tanasida har taraflama yetilish kuzatiladi. Vazni oshadi, bo'yi o'sadi, yuragi kengayadi.

Endi ularga bolalarga muomala qilgandek muomala qila olmaysiz. Endi kerak bo'lsa, u sizga nima to'g'ri-yu, nima noto'g'ri ekanligini ham o'rgata oladi. Bunday paytda siz bolalar bilan do'stdek, muomala olib borishingiz va har bir muammolarni birgalikda hal qilganingiz ma'qul. Ko'pchilik ota-onalar bolasi ulg'ayganini allaqachon sezishadi, biroq bunga e'tibor berishmaydi. Bolalar esa, bu davrda ota-onalaridan birozgina yordam kutishadi xolos. Ularda o'z fikrni ifoda qilish

shakllana boshlaydi, mas'uliyat hissi ham osha boshlaydi. Shu tufayli, o'smirlik davrida ota-onal bolaga va bola ota-onaga suyanib birgalikda hayot tashvishlarini yengish eng ma'qul yo'l hisoblanadi. Bu davr qiyin davr deyilishiga sabab ham ulardagi turli o'zgarishlar hamda har bir ishda o'zlarini qo'liga ola olmasliklaridadir. Bu davrning o'rganilishi juda ham ko'p olimlar tomonidan olib borilgan. Jumladan: Zigmund Freyd, Jan Peaje kabi olimlar ham o'z tadqiqotlarida o'smirlik davri haqida ma'lumot berib o'tishgan. Ular o'smirlik davrigacha bo'lgan davr va o'smirlik davri eng muhim davr va eng asosiy davr ekanligini aytib o'tadi. Chunki, ular aynan mana shu davrda insonning butun hayotini belgilab beruvchi davr bo'lsa ajab emas deb hisoblashadi. Shu sababli, ota-onalar ham bolalarining kelajagiga befarq bo'lmay, bu yoshdagi bolalarga e'tibor berishlari juda ham zarur hisoblanadi. O'smirlik davrida bolalar ko'pincha agressiv, egaizm holatda bo'ladi. Bunday holatlar ular uchun juda ham salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Ular bilan dostona aloqa qilinmas ekan, ularda ushbu holatlar yanada rivojlanib boradi. Shu tufayli, ularda hammaga salbiy munosabat shakllanishi mumkin. Bu o'z navbatida, ulardagi hatti-harakatlarning ham o'zgarishiga olib keladi. O'smirlik davri o'ziga xos davr hisoblanib, bu davrdagi eng muhim narsa bolalik va kattalik o'rtasidagi o'zgarish va ulardagi muhim jihatlar hisoblanadi. Shu sababli, ularni to'g'ri tushunish muhim. O'smirlik davri har bir bolada turlicha kechadi, ba'zilar bu davrni oson o'tkazishsa, ba'zilari esa, juda ham qiynalishadi. Shunday ekan, o'smirlik davrida bolalarga e'tibor eng muhim va asosiy vazifalarimizdan ekanligini unutmasligimiz shart.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. M.Abdurahmonova, Ruhiy dunyo tasviri – O'zbekiston nashriyoti – Toshkent 1995
2. T.Xayit. Buyuk salohiyat sohibi, Toshkent - o'qituvchi nashriyoti 2016
3. Ismoilovna A.Z, (2023) O'smirlarda agressev xulq-atvor, Germany Modern scientific research achievements, innovations and development prospects.
4. Dilova N.F. (2017), O'quvchi shaxsini rivojlantirishda xamkorlik pedagogikasining o'rni, Zamonaviy ta'lim, 1-son
5. Ulug'bek Hamdam, Muvozanat – Toshkent Sharq 2007.
6. Olshansky.D.V, Osnovnie teorii liderstv Politicheskaya psixologiya 2020

7. O.Sodiqova, S.Madaliyeva – Psixologiya Toshkent 2010
8. E.E.G'oziyev - Ontogenetik psixologiyasi, Nazariy Eksperimental tahlili. Toshkent Monografiya 2010